

UDK: 372.3:371.3

MA'NAVIY TARBIYA MASALALARINING GLOBAL MUAMMOLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim innovatsiyalari
kafedrası PhD katta o'qituvchisi knuraliyeva4980@gmail.com +998934974980*

Sobirova Dilorom Mirzakbar qizi

*Namangan davlat pedagogika instituti Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti
+998932112806 murodullayevadilorom3@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'naviy tarbiya, tarbiya tushunchalari mazmuni yoritilgan. Mutafakkirlardan Beruniy, A.Avloniyning tarbiyaga oid ta'riflari keltirib o'tilgan. Tarbiya jarayonida bolalarning yosh xususiyatlariga bog'liq xususiyatlari yoritilgan. Hozirgi kunda insoniyatni qiynab kelayotgan umumbashariy masalasi global muammolar mazmuni qisqacha ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy tarbiya, axloqlilik, bola tarbiyasi, qadriyat, iqtisodiy tarbiya, ekologik tarbiya, globallashtirish, muammo.

СВЯЗЬ ВОПРОСОВ ДУХОВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ГЛОБАЛЬНЫМИ ПРОБЛЕМАМИ

Аннотация: В статье рассматривается содержание понятий духовного образования и воспитания. Среди мыслителей цитируется определение воспитания Беруни и А. Авлони. Освещены возрастные особенности детей в процессе воспитания. Кратко освещается суть глобальных проблем, всеобщей проблемы, которая в настоящее время беспокоит человечество.

Ключевые слова: Духовное образование, нравственность, воспитание детей, ценность, экономическое образование, экологическое образование, глобализация, проблема.

RELATIONSHIP OF SPIRITUAL EDUCATION ISSUES WITH GLOBAL PROBLEMS

Annotation: This article covers the content of the concepts of spiritual education and upbringing. The definition of upbringing by thinkers Beruniy and A. Avloni is cited. The age-related characteristics of children in the upbringing process are highlighted. The content of the universal issue of global problems that are currently tormenting humanity is briefly highlighted.

Keywords: Spiritual education, morality, child upbringing, value, economic education, ecological education, globalization, problem.

KIRISH

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan". Sh.Mirziyoyev.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Beruniy insonning kamolotga yetishishida ilm-u ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha inson kamolga yetishuvining eng muhim omillari ilm ma'rifatli bo'lish va yuksak axloqlilikdir. Axloqlilikning belgilari yaxshilik, to'g'rilik, adolat, kamtarlik, saxovat, oliyanoblik, do'stlik va hamkorlik, mehnat, poklik, go'zallikka intilish kabilardir. Turli zamon va makonda ijtimoiy tarbiyaning mohiyati turlicha bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy maqsadlardan kelib chiqib asoslangan. Turli makon va zamonda tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsa-da, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: «Al-hosil tarbiya bizlar uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo sadoqat yo falokat masalasidir». Ushbu fikrlardan anglashiladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy-milliy masaladir. Zero, har bir xalqning taraqqiyoti, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq. Tarbiya jarayonining mohiyatini tarbiyaga har tomonlama yondashish bilan muvaffaqiyatli tarzda ilmiy tahlil qilish mumkin. Shaxs tarbiyaning natijasi sifatida yaxlit mavjudotdir. Shaxsning ko'pdan-ko'p xislatlari bir-biridan ayri emas, balki o'zaro mustahkam bog'langan. Tarbiya jarayonida bolaning shaxsiyati ayrim-ayrim emas, balki yaxlit ravishda rivojlanadi. Bola o'sib, rivojlanib borgan sari tarbiya vazifalari murakkablashib, chuqurlashib, tabaqalashib boradi. Har tomonlama obyektiv ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekologik, iqtisodiy

hamda huquqiy tarbiya birligini, o'qituvchilarning ongi, xulq-atvori va faoliyatining umumiyligini, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shakllari qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan pedagogik tizimlarni vujudga keltirishni va bu tizimlarning amal qilishini talab etadi. Shaxs ishtirok etadigan ijtimoiy munosabatlar tizimi qanchalik keng, xilma-xil va guruhli bo'lsa, uning ma'naviy dunyosi shunchalik boy bo'ladi.

"Ishbop o'yin" metodi



Ushbu metod - berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri

Ta'rifi; Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

Foydalanish doiralari; Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Afzalliklari; Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Global muammolar umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolari. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni

tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish, atrof- muhitni halokatli tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish, insoniyatni kerakli resurslar — oziq-ovqat, sanoat xomashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlariga olib kelishiga yo'l qo'ymaslik kabilar kiradi.[4] Global muammolar avvalo jahonda kechayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, harbiy, ilmiy-texnologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning umumbashariy ahamiyat kasb etishi natijasida yuzaga keldi. Hozirgi davrda insoniyat rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri bu globallashuv jarayonining kuchayib borishidir. Ma'lumki, turli ko'rinish va shakllardagi ma'naviy tahdidlar, asosan, yoshlarga qaratilmoqda. Albatta, buning asosiy sababi yoshlarning jamiyatdagi eng faol qatlam ekani, turli g'oyalar, ta'sirlarga beriluvchanligi bilan izohlanadi. Ayni paytda, yoshlar ongini zabt etish har qanday mafkuraviy kuch uchun strategik ahamiyatga ega. Zero, mamlakatning istiqboli aynan yoshlarning ehtiyoji, manfaatlari va ulardan kelib chiquvchi maqsadlari bilan belgilanadi. Shuning uchun ham birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg'ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir", - deb ta'kidlaganlar.

Global muammolarning turlari

Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar;
2. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar;
3. Ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar;
4. Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar.

Bugun nafaqat yoshlar, butun boshli aholi globallashuvning shiddatli davrini o'z boshidan kechirmoqdaki, bunday tahlikali davrda millat, mamlakat, genofond, kerak bo'lsa, ma'naviyat xavfsizligi borasida har bir fuqarodan yuksak mas'uliyat talab etiladi. Ayni damda mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasi, ularni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasidagi eng muhim masalalardan biri sifatida qaralayotgani mamlakatning dunyo miqyosidagi xalqaro

ko'rsatkichlardagi mavqeyini yanada ko'tarilishiga turtki bo'lmoqda. Mamlakatda ilm-fan rivojiga qaratilayotgan e'tiborning quyidagi natijalarini ko'rsatib o'tish joiz:

- birinchidan, yoshlarni qo'llab-quvvatlashning yangi tizimi yaratildi;
- ikkinchidan, 3 yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni bog'chalarga qamrab olish darajasi bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda;
- uchinchidan, umumta'lim maktablarining o'qitish tizimidagi samaradorlikni oshirishga qaratilgan islohotlar, jamiyatda maktab o'qituvchilari mavqeyini ko'tarishga qaratilgan islohotlar, iqtidorli bolalar uchun maxsus fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarning ko'payayotganligi, maktablardagi shart-sharoitlar eng ilg'or mamlakatlar maktablaridan qolishmasligi, bilimga chanqoq yoshlarning soni kun sayin oshib borayotgani;
- to'rtinchidan, oliy ta'limda universitetlarga qabul kvotalari oshirildi, mahalliy va xorijiy OTMlar filiallari ochilayotgani, qabul jarayonlaridagi abituriyentlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ta'lim tizimini korrupsiyasiz sohaga aylantirishga qaratilgan islohotlar;
- beshinchidan, innovatsion grantlarga ajratilayotgan mablag'larning keskin oshirilishi, yosh olimlarni xorijning yetakchi OTMlariga ilmiy tadqiqot ishlarini davom ettirishga qaratilgan islohotlar.

Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar:

Ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlaminin yo'qolib borishi kabilar kiradi. Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish bugungi kunning muhim masalalaridan hisoblanadi. Ekologik madaniyatning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarini, ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki muayyan, aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik tarbiya natijasida yoshlarning ekologik bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, mehnatga ixlos bilan munosabatda bo'lish sifatlarini tarbiyalash mumkin. Shundan kelib chiqib quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir: bolalarda atrof-muhitga bo'lgan daxldorlik munosabatini shakllantirish,

ularda mas'uliyat hissini uyg'otish va tarbiyalash, tabiat resurslaridan – yer, suv, energiyadan, barcha xom-ashyolardan ehtiyotkorlik, tejamkorlik va sarhisoblik bilan foydalanish, ya'ni uvolga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini ularning kundalik hayotida singdirish, bu hatti-harakatlarda shaxsiy namuna amallarini ko'rsatish, bolalarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasiga asosiy urg'u berib, ularda yuksak insoniy fazilat, atrof-muhitga bo'lgan munosabatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik va obod etish sifatlarni qaror toptirish orqali ekologik ma'naviyatni va tabiatga bo'lgan yangi qarashni shakllantirish, oila muhitida toza ichimlik suvidan samarali foydalanish madaniyatiga qat'iy amal qilish har bir oila a'zolarining ajralmas fazilatiga aylanishini, oilada bolaning sog'lom turmush va ekologik odobini har tomonlama shakllanishiga, suv, tuproq, havoni ifloslantirmaslik, o'simlik va hayvonot olamining rang-barangligini saqlashga o'z hissasini qo'shish, unga bo'lgan g'amxo'rlik sifatlarini qaror topishiga, befarqlik alomatlarini oldini olish, shaxsiy ekologik pozitsiyasini tarbiyalashga e'tiborni qaratish, bolalarda ekologik huquqning birlamchi kurtaklarini, ya'ni atrof tabiiy muhitga bo'lgan o'z fuqaroviy burch va majburiyatlarini anglab yetishlariga, ekologik xavfsiz muhit insonlarning sog'lom hayot kechirishlariga hamda sanitariya ekologik holatining yaxshilanishiga zamin bo'lishini tushuntirib borish, bolalar tomonidan turli hayotiy vaziyatlarda qaror qabul qilayotganlarida, albatta atrof-muhit holatini e'tibordan chiqarmaslikni va uni hisobga olish zarurligini, bolaning atrof-muhitni toza saqlashda ko'rsatgan amallarini ota-onalar doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashi hamda tabiatga qilingan nojo'ya hatti-harakatning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishini uqtirib borish, bolalarni bo'sh vaqtlarida bevosita tabiat qo'ynida, hayvonot va o'simlik olamining turli-tuman ekanligini anglashi, rang-barang go'zalliklaridan ularni bahramand qilish borasida imkon qadar birgalikda tabiat qo'yniga sayohatlar uyushtirish shular jumlasidandir.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni alohida aytish mumkinki, tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatni sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Insonni mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalash aqlni peshlash demakdir. Bu esa

iste'dodlarni yuzaga chiqarishga asos hamdir. Aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi. Ma'lumki, har qanday kishida muhim bir bezak bor. U insondagi aql va odob go'zalligidir. Ushbu go'zallik kishiga hayotda o'z o'rnini topishda muhim ma'naviy asosdir. Bu esa ularning o'zlari ham tarbiyada ibratnamuna oladigan shaxslar bo'lishiga katta imkoniyatdir. Shu tariqa inson sekin-asta takomillashib, komillikka erishib boradi. Jamiyatning ilmiy, ma'rifatli jamiyat bo'lishi yo'lidagi islohotlar esa o'z o'rnida mamlakatning yuksak taraqqiyotga erishishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aydarov Ye.B. Ekologiya va tabiatdan foydalanish (o'quv-qo'llanma). Guvohnoma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 30 iyundagi 359-sonli buyrug'i. Ro'yxatga olish raqami 359-202.-Qarshi, -2021. 04-2170.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Z.K. Ismailova. Pedagogikadan amaliy mashg'ulotlar. — T.: «Fan», 2003. 1. 4. Insoniyatning global muammolari <http://geografiya.uz/geografiya/11309-insoniyatning-global-muammolari.html>
5. Global iqtisodiy muammolar <https://fayllar.org/global-iqtisodiy-muammolar.html>
6. Nuraliyeva, K. I. (2021). BOSHLANGICH SINIF OQUVCHILARINING KREATIV SALOHİYATINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(6), 208-214.